


SUDLAR ISHTIROKIDA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI



SUDLAR ISHTIROKIDA SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida inson manfaatining mujassamligi davlatimiz rahbari olib borayotgan siyosatning odilligidan dalolat beradi. Ayni inson qadrini ulug'lash va yuksaltirishga qaratilgan ezgu tashabbuslar sud-huquq tizimida ham keng ko'lamda amalga oshirilayotir.

Ta'kidlash joizki, 2021 yil boshidan amaliyotga joriy etilgan sud-huquq islohotlari Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida belgilab berilgan edi.

Avval xabar berganimizdek, bugun Lenbur mahalla fuqarolar yig'inida Farg'ona viloyat sudi raisi va uning o'rinbosarlari tomonidan tasdiqlangan rejaga ko'ra, jinoyat va huquqbuzarliklar, nikohdan ajratish, tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokidagi nizolar hamda fuqarolarning murojaatlari ko'paygan mahallalar, tumanlarda profilaktika ishlarini jonlantirishga qaratilgan sayyor qabul o'tkazildi.

Tashkil etilgan sayyor qabulda Farg'ona viloyat sudi raisi o'rinbosari B.Vahobov, Farg'ona viloyat sudining sudyasi F.Hatamqulov, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha So'x tuman sudi raislari Sh.Abdullayev va Sh.Madumarovlar ishtirok etib, murojaat bilan kelgan har bir fuqaroni shaxsan qabul qilib, ularga huquqiy maslahatlar berdilar va ko'p murojaatchilarning muammolari joriy etilgan tartib doirasida hal etildi.

Aytish lozimki, Respublikamizda sud-huquq sohasida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohot va yangilanishlar samarasi o'laroq bugun soha vakillari ishtirokida xalq bilan uchrashuv va sayyor qabullar o'tkazilyapti. Xalq ichiga kirib borayotgan soha vakillariga nisbatan fuqarolarda ishonch hissi ko'paymoqda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-08 19:11:39